

MULOQOTNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdulxakimov Boxodir Abdurayimovich
Farg'ona tumani 11- maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muloqot jarayonining shaxslararo munosabatlardagi o'rnini, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda shaxs rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muloqot, shaxslararo munosabat, psixologiya, ijtimoiy muhit, kommunikatsiya, empatiya, interaksiya, shaxs rivojlanishi.

KIRISH

Muloqot inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida asosiy vosita hisoblanadi. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, u doimiy ravishda boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishadi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan muloqot faqat axborot almashinuvi emas, balki hissiyotlar, munosabatlar va qadriyatlarining ham uzatilish jarayonidir. Muloqot orqali shaxs o'zini namoyon qiladi va boshqalarni tushunadi. Shaxslararo munosabatlarda muloqotning sifati juda muhim ahamiyatga ega. Ijobiy muloqot ishonch, hurmat va hamkorlikni shakllantiradi, salbiy muloqot esa nizolar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Psixologik jihatdan muloqot jarayonida empatiya, ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Empatiya kuchli bo'lgan shaxslarda ijtimoiy moslashuv oson kechadi. Muloqotning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan biri — verbal va noverbal vositalarning birgalikda ishlashidir. So'zlar bilan birga mimika, imo-ishora va ovoz ohangi ham muhim ahamiyatga ega.

Samarali muloqot shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U o'ziga ishonchni oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy muhitga moslashishni osonlashtiradi. Ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sog'lom muloqot ta'lim samaradorligini oshiradi.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning asosiy psixologik omili bo'lib, uning ijobiy shakllanishi jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shaxslararo munosabatlarning muhim omili sifatida eng boshidan muloqot alohida e'tirof etilgan. Shaxslar faoliyat jarayonida va uni samaraliy tashkil etish hamda ijobiy natija olishlari uchun ular da bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'uladi. Tabiiyki o'zaro muloqot kishilik jamiyatini vujudga kelishining eng asosiy omili

hisoblanadi va aynan mana shuning uchun ham muloqot faqat insonga hos bo'lgan jarayondir.

Psixologik tomondan yondashadigan bo'lsak muloqotga ikki xil ta'rif berishimiz mumkin:

1. Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

2. Muloqot – belgilar tizimi orqali sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvi. Agar muloqotga kompleks jihatdan ta'rif beradigan bo'lsak: muloqot – shaxslar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining serqirra jarayonidir. Muloqot shaxslar o'rtasidagi axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi, bunda munosabatning (muloqotning) kommunikativ jihati inobatga olinadi.

Bu o'rinda kommunikatsiya tushunchasini muloqot tushunchasidan farqlash lozim. To'g'ri ba'zi o'rinlarda bu so'zlar ketma ket, yonma yon ayrim hollarda ma'nodosh va bir birini to'ldiruvchi so'zlar sifatida qo'llaniladi. Ammo, tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, hayvonlar o'rtasidagi o'zaro signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa o'rnatishi bu – kommunikatsiyadir.

Muloqot esa faqatgina insonlar o'rtasida o'zaro amalga oshiriluvchi tadrijiy rivojlanishning yuksak na'munasidir. Indvid (inson bolasi) aynan mikro sotsium va sotsium a'zolari bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi va buning asosida bioijtimoiy psixologik yaxlit tuzulmaga (shaxsga) aylanadi. Umuman olganda muloqot ijtimoiy faollikning inson ontogenezida ko'zga tashlanadigan birinchi turidir.

Insonlar ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish asnosida muloqotga ehtiyoj sezadilar va mana shu faoliyatning samaradorligini shaxslararo muloqot jarayonining kommunikativ(axborot uzatish), interaktiv(o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok qilish tomonlari va xususiyatlariga bog'liqdir.

Yuqoridagi ta'riflardan yaxlit bir xulosaga kelish mumkin: faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir. Rivojlanib borayotgan jamiyatda yuksak darajada tadrijiy rivojlanib borayotgan bioijtimoiy psixologik yaxlit tuzilmaning shakillanishida muloqotning naqadar muhim o'rin egallaganligi, zamonaviy kishilik jamiyati qurilishida muloqotning naqadar ahamiyatli ekanligi satsiolog va psixologlarni tobora qiziqтира boshladi va muloqotning sotsiumda va shaxs faoliyatidagi funksiyasiga ko'ra B.F.Lomov quyidagi tasnifni taklif etadi:

1. Informatsion – kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta'minlash, axborot almashinuvi o'z navbatida turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Asosan verbal (nutq belgilar tizimi sifatida ishlatiladi) va noverbal (bunda nutqdan boshqa barcha vositalar belgilar tizimi sifatida ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi.

2. Regulyatsion – kommunikativ funksiya – suhbatdosh xulq-atvorining regulyatsiya qilinishi (boshqarilishi)ni ta'minlash funksiyasi. Biror bir faoliyat va ma'lum funksiyalarni bajarish chog'ida kishilar muloqot jarayonining ushbu funksiyasidan foydalangan holda bir-birlariga sitimullovchi va korreksiyalovchi tarzda ta'sir ko'rsatishlari mumkun.

3. Affektiv – kommunikativ funksiya – suhbatdoshning emotsoional sohasini regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Bunda inson emotsional sohasining eng muhim determinantasi sifatida muloqot o'rta qad, bunga sabab esa muloqotning information funksiyasiga beriladigan ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar aynan emotsiyalar orqali ifodalanadi.

L.A.Karpenko muloqotni biroz boshqacha tasniflaydi va quyidagi muloqot vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

1. Aloqa o'rnatish vazifasi – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash.
2. Informatsion vazifa – suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikirlar va rejalarni almashish.
3. Faoliyatga undash – suhbatdoshni biror bir harakatni bajarishga stimullashtirish.
4. Koordinatsion vazifa – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirish harakatlarini muvofiqlashtirish.
5. Tushunishni ta'minlash vazifasi – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish.
6. Amotiv vazifasi – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish.
7. Munosabat o'rnatish vazifasi – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rnini, mavqeini aniqlash.
8. Ta'sir ko'rsatish vazifasi – suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki muloqot polifunksional sotsial hodisadir. Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy so'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir – birlari bilan o'zaro ruhiy jihardan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar.

XULOSA

Muloqot haqidagi va muloqotga asoslangan fanlar antik davrda ham mavjud bo'lgan, bunday fanlardan biri "Ritorika"dir. Ritorika – ishontirish usullari haqidagi, xatti-harakat va idrok qilishning boshlang'ich qoliplari haqidagi fandır. Uning predmeti esa ishonarli nutqning qoida va usullaridir. Bu Arastu davridan buyon mavjud. Keyinchalik bu chiroyli so'zlashning ilmiy falsafiy yo'nalishiga aylanib bordi va o'sha davrda har bir Kfarist maktabi o'quvchilariga majburiy fan sifatida o'qitilgan. Ritorika hozirgacha san'atni ham fanni ham qiziqtirib kelmoqda. Agar ritorika

psixologiyasiga, kommunikativ ishonchning qonuniyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar haqidagi ilmiy yo'nalish sifatida qaraladigan bo'lsa, ta'kidlash kerakki, har qanday kasbda inson omilida ishontirish fenomeni muhimdir. Ishonchli kommunikatsiya muammosini hal qilmay turib, jamiyatda denokratiyani shakillantirib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'oziyev. Muloqot psixologiyasi. T.2021.
2. Turg'unboyeva, A., Badritdinova, M., G'aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF PUPILS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In E-Conference Globe (pp. 306-308).
3. Halimjanovna, A. M., & Baxromovna, B. M. (2023). MUAMMOLI TA'LIM MUSTAQIL FIKRLASH OMILI SIFATIDA. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 266-270.
4. Halimjanovna, A. M., Bakhromovna, B. M., Alisherovna, M. N., Tuxtasinovna, T. R., & Jumaboyevna, T. S. (2023). Psychological Mechanisms for Overcoming the Feeling of Fear that Occurs in Students During the Examination Process. *Migration Letters*, 20(S8), 1549-1556.
5. Badritdinova, M. B., & Rustamova, T. N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Science and Education*, 2(2), 331-337.